



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Sanjar Baxronkulovich Boboqulov Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
Фарангис Азамовна Ишанкулова Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
Севара Абдиназаровна Бабаназарова Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta’minoti xizmatlarining tutgan o‘rni va ahamiyati	91
Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Елена Вячеславовна Гольшева Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
To‘lqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
Azizjon Shukrilloyevich Berdimurodov Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
Dostonbek Furqat o‘g‘li Tilovmurodov Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
Shohro‘ Baxtiyorovna Navruz-zoda Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o‘g‘li Ismatillayev Turizm va mehmondo‘stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg‘unlashtirish masalalari	136
Йылмаз Улви Узун Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
Askar Axrorovich Siddiqov Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
Diyora Farhod kizi Bahriddinova Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

Тўртинчидан, таълим сифатини баҳолашнинг миллий тизимини такомиллаштириш ва халқаро рейтинглар мезонларини жорий этиш;

Бешинчидан, таълим хизматлари экспортини кенгайтириш орқали таълимни янги иқтисодий ресурсга айлантириш.

Келтирилган таклифларни амалиётга тадбиқ этилиши, таълим хизматларининг сифати ва самарадорлигини оширишга, бу эса ўз навбатида мамлакатнинг иқтисодий ривожланишига ва аҳоли турмуш фаровонлигини оширишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press.
2. UNESCO. (2015). Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4.
3. World Trade Organization. (1995). General Agreement on Trade in Services (GATS), Annex on Education Services.
4. Samuelson, P. A. (1954). The Pure Theory of Public Expenditure. Review of Economics and Statistics, 36(4), 387–389.
5. Пардаев М.К., Пардаева О.М., Бабаназарова С.А. Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар. — Сервис илмий-амалий журнали, 2025 йил 1-сон, - 177-182 бетлар.
6. Авлоний А. (1913). Туркий Гулистон ёхуд Ахлоқ. Тошкент.
7. Ёўлдошев, Х., Азизхўжаев, Н. (2000). Педагогика: Дарслик. Тошкент.
8. Ўзбекистон Республикаси Қонуни «Таълим тўғрисида». (2020 й. 23 сентябрь, ЎРҚ–637).

<p>С.Бабаназарова</p> <p>Понятие образовательных услуг и их роль и значение в формировании человеческих ресурсов</p> <p>Аннотация. В статье анализируются роль и значение образовательных услуг в формировании кадрового потенциала в условиях инновационной экономики с теоретической и практической точки зрения. Образовательные услуги рассматриваются как социально-экономическая категория, выделяются их основные функции: интеллектуально-образовательная, социально-образовательная, подготовка кадров для рынка труда и стимулирование инноваций.</p> <p>Ключевые слова: образовательные услуги, человеческий капитал, инновационная экономика, человеческие ресурсы, интеллектуальный потенциал, конкурентоспособные кадры.</p>	<p>S.Babanazarova</p> <p>The Concept of Educational Services and Their Role and Importance in the Formation of Human Resources</p> <p>Abstract. This article analyzes the role and importance of educational services in the formation of human resources in the conditions of the innovative economy from a theoretical and practical point of view. Educational services are considered as a socio-economic category, and their main functions, such as intellectual-educational, social-educational, training of personnel for the labor market and stimulation of innovations, are highlighted.</p> <p>Keywords: educational services, human capital, innovative economy, human resources, intellectual potential, competitive personnel.</p>
--	---

Shohina Xujmaxmatovna Pirova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti stajyor assistenti

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA ICHIMLIK SUVI TA’MINOTI XIZMATLARINING TUTGAN O’RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida ichimlik suvi ta’minoti xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o’rni va ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Ishning dolzarbligi suv resurslarining cheklanganligi, global iqlim o’zgarishlari, urbanizatsiya va aholining o’sishi sharoitida ichimlik suvi ta’minoti tizimining samarali ishlashini ta’minlash zaruriyati bilan belgilanadi. Tadqiqotda O’zbekiston Respublikasida ichimlik suvi infratuzilmasining hozirgi holati, uning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta’siri, suv bilan qamrov darajasi, texnik va moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari o’rganildi.

Kalit so’zlar: ichimlik suvi ta’minoti, iqtisodiy samaradorlik, suv infratuzilmasi, indikatorlar tizimi, xalqaro tajriba, O’zbekiston iqtisodiyoti, ichimlik suvi tanqisligi.

Kirish. Hozirgi davrda ichimlik suvi ta’minoti har qanday mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega. Jahon miqyosida suv

resurslarining cheklanganligi, global iqlim o‘zgarishi, urbanizatsiya jarayonlari va aholi sonining ortishi sababli ichimlik suvi ta‘minoti masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG 6) 2030-yilgacha barcha aholiga xavfsiz va arzon ichimlik suvi yetkazib berish vazifasi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida ham ichimlik suvi ta‘minoti davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ichimlik suvini aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga uzluksiz yetkazib berishni ta‘minlash maqsadida bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, PQ–60-son qarori (2022-yil) bilan “Ichimlik suvi va sanitariya xizmatlarini rivojlantirish dasturi” qabul qilindi. Shu bilan birga, suv ta‘minoti tizimining eskirganligi, moliyaviy barqarorlikning yetarli emasligi, tarif siyosati va energiya sarfining yuqoriligi kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – ichimlik suvi ta‘minoti xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ichimlik suvi ta‘minoti xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan asoslash;
2. O‘zbekiston iqtisodiyotida suv ta‘minotining tutgan o‘rni va rolini aniqlash;
3. Suv infratuzilmasining texnik va moliyaviy holatini baholash;
4. Ichimlik suvi xizmatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga ta‘sirini o‘rganish;
5. Xalqaro tajribani tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarda ichimlik suvi ta‘minoti tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati chuqur o‘rganilmoqda. Milliy manbalarda, xususan **Jo‘rayev (2022)** o‘z tadqiqotida suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilib, ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini asoslab beradi. Muallif suv ta‘minoti sohasida investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Davlat darajasidagi hujjatlar — masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ–4890-son qarori hamda “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (2020) — suv ta‘minoti tizimini isloh qilish, aholining toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va infratuzilmani yangilashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi.

Xalqaro manbalar orasida **World Bank (2023)** va **United Nations (2022)** hisobotlari O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishdagi asosiy muammolar — suv tanqisligi, infratuzilmaning eskirganligi va moliyalashtirish yetishmasligini ko‘rsatib, barqaror suv boshqaruvi iqtisodiy o‘sish uchun zarur omil ekanini ta‘kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ichimlik suvi ta‘minoti xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini aniqlash, nazariy asoslarini umumlashirishda tahlil va sintez usullari, iqtisodiy-statistik usullaridan foydalanildi.

Tahlil natijalari. Ichimlik suvi ta‘minoti – bu aholi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni sifatli va xavfsiz ichimlik suvi bilan uzluksiz ta‘minlashga qaratilgan tizimli jarayon bo‘lib, u suvni manbadan olish, uni tozalash, dezinfeksiya qilish, transport qilish va iste‘molchiga yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. Ichimlik suvining sifat ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat standartlari (O‘z DSt) va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) normalari asosida belgilanadi. Unga ko‘ra, ichimlik suvi kimyoviy, fizik va mikrobiologik jihatdan inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan darajada bo‘lishi zarur. Suv ta‘minoti tizimi asosan quyidagi elementlardan iborat:

- Suv manbalari – yer usti va yer osti suv manbalari (daryolar, suv omborlari, quduqlar);
- Suvni tozalash inshootlari – ichimlik suvini zararsizlantirish va sifati normativlarga moslashtirish;
- Transport va taqsimlash tarmoqlari – quvurlar, nasos stansiyalari, bosim regulyatorlari;
- Monitoring tizimi – suv sifati va ta‘minot holatini nazorat qilish usullari (SCADA, GIS).

Ichimlik suvi ta‘minoti xalq xo‘jaligi uchun uchta asosiy yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega:

1. Ijtimoiy omil sifatida – aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash turmush darajasining oshishi, sanitariya-gigiyena sharoitlarining yaxshilanishi va sog‘liqni saqlash tizimida

profilaktik choralarning samaradorligini oshiradi.

2. Iqtisodiy resurs sifatida – suv iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun zarur resurs hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, energetika, kimyo sanoati kabi sohalar samarali ishlab chiqarish uchun toza suvga ehtiyoj sezadi.

3. Ekologik barqarorlik omili sifatida – suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan himoya qilish ekologik muvozanatni ta’minlaydi.



2. Suv tanqisligi va ekologiya.

Suv ta’minoti xizmatlarining iqtisodiy mohiyati. Suv ta’minoti xizmatlari – bu aholi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarini zarur hajmda va sifatda suv bilan ta’minlashga qaratilgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati majmuasidir. Ushbu xizmatlar iqtisodiyotning infratuzilma sohasiga kiradi va ijtimoiy-iqtisodiy tizimda strategik ahamiyat kasb etadi.

Ichimlik suvi ta’minoti. Bu tur aholini va ijtimoiy sohalarni sifatli va xavfsiz ichimlik suvi bilan ta’minlashga qaratilgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi. U quyidagi elementlardan iborat:

- Suvni manbadan olish (yer usti va yer osti manbalari);
- Tozalash va dezinfeksiya qilish;
- Suvni transport qilish va iste’molchiga yetkazib berish;
- Sifat nazorati (sanitariya-gigiyenik talablar asosida).

Suv ta’minoti turlari:

1. Maishiy va texnik ehtiyojlar uchun suv ta’minoti.
2. Sanoat va ishlab chiqarish suv ta’minoti.
3. Qishloq xo‘jaligi uchun suv ta’minoti.
4. Favqulodda holatlar uchun suv ta’minoti.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, suv ta’minoti xizmatlarining moliyaviy barqarorligi uch asosiy tamoyilga asoslanadi: xarajatlarni qoplash, foydalanuvchilar to‘lovi, davlat qo‘llab-quvvatlashi.

Suv infratuzilmasining iqtisodiyotdagi o‘rni. Suv infratuzilmasi – bu suv resurslarini yig‘ish, tozalash, taqsimlash va utilizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan texnik, texnologik va boshqaruv tizimlarining majmuasidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: suv omborlari, quvurlar tarmoqlari, suvni tozalash inshootlari, nasos stansiyalari, monitoring va nazorat tizimlari. Jahon Banki (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, suv infratuzilmasiga kiritilgan har 1 dollar investitsiya YAIMni o‘rtacha 2-3 barobar oshiradi. Bu uning iqtisodiyotdagi multiplikativ ta’sirini ko‘rsatadi.

Suv infratuzilmasining iqtisodiyot uchun strategik ahamiyati. Suv infratuzilmasi davlatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. UN-Water ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilgacha ichimlik suvi bilan qamrovni 100% ga yetkazish uchun global miqyosda yiliga 114 mlrd dollar investitsiya talab etiladi. O‘zbekistonda esa “Ichimlik suvi va sanitariya xizmatlarini rivojlantirish dasturi” (PQ–60, 2022) doirasida 2030-yilgacha 40 ming km suv tarmoqlarini yangilash rejalashtirilgan. Strategik ahamiyat quyidagilar bilan belgilanadi:

- Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 6) bajarilishi;

- Milliy raqobatbardoshlikni oshirish;
- Investitsion jozibadorlikni ta'minlash;
- Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash.

SDG 6 mazmuni va suv ta'minoti bilan bog'liq global vazifalar. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals, SDG) ichida 6-maqsad – “Toza suv va sanitariya” inson salomatligi, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu maqsadning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 6.1 – 2030-yilgacha barcha aholiga xavfsiz va arzon ichimlik suvini taqdim etish;
- 6.2 – sanitariya va gigiyena xizmatlarini ta'minlash, ochiq defekatsiyani bartaraf etish;
- 6.3 – suv sifatini yaxshilash, ifloslanish va chiqindilarni kamaytirish;
- 6.4 – suv resurslaridan samarali foydalanish va suv tanqisligini kamaytirish;
- 6.5 – integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM)ni joriy etish;
- 6.6 – suv bilan bog'liq ekotizimlarni muhofaza qilish va tiklash.

SDG 6 bajarilishida innovatsion yondashuvlar:

- Raqamli boshqaruv – SCADA, GIS tizimlari orqali real vaqt rejimida monitoring;
- Suvni qayta ishlash va desalinizatsiya – suv resurslarini diversifikatsiya qilish;
- Energiya tejamkor texnologiyalar – suv uzatish xarajatlarini kamaytirish;
- Davlat-xususiy sheriklik – investitsiyalarni jalb qilishning asosiy mexanizmi sifatida.

Suv kodeksi O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanishning asosiy huquqiy asosini belgilaydi. PQ–60-son qarori (2022-yil 27-yanvar) va uning strategik ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–60-son qarori “Ichimlik s.vi ta'minoti va oqova suv xizmatlarini rivojlantirish dasturi” doirasida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan keng qamrovli islohotlarni belgilab berdi. Ushbu hujjatning asosiy maqsadi – ichimlik suv ta'minoti sohasida sifatli xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishdir.

PQ–60 qarorining asosiy vazifalari:

- Ichimlik suv bilan qamrovni oshirish – 2026-yilgacha 100% aholini markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash;
- Tarmoq infratuzilmasini kengaytirish – 40 ming km suv tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish;
- Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini rivojlantirish – DXSh asosida yirik loyihalarni amalga oshirish;
- Raqamli texnologiyalarni joriy etish – suv ta'minoti tizimlarida SCADA, GIS, aqlli hisoblagichlarni keng tatbiq etish;
- Investitsiyalar hajmini oshirish – 2026-yilgacha sohada 3 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish.

Strategik natijalar:

- Qishloq joylarda ichimlik suv bilan qamrov darajasi 67% dan 100% ga yetkaziladi;
- Oqova suv xizmatlari ko'rsatish darajasi 22% dan 60% gacha oshadi;
- Texnik yo'qotishlar 30% dan 20% gacha kamayadi.

Xulosa va takliflar. Ichimlik suvi ta'minoti tizimi mamlakat iqtisodiyoti va aholining ijtimoiy farovonligida muhim o'rin tutadi. Barqaror va sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash sog'liqni saqlash, sanoat, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish sohasining samarali faoliyat yuritishida asosiy omil hisoblanadi. Suv infratuzilmasining modernizatsiyasi, resurslardan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

1. Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish.
2. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish — yangi tarmoqlar qurilishi va mavjud infratuzilmani yangilashda investitsiyalarni jalb etadi.
3. Aholining suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish — ekologik ta'lim va targ'ibot ishlari orqali barqaror iste'molga erishish mumkin.
4. Suv ta'minoti tizimlarida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash — xarajatlarni kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi.
5. Hududlar bo'yicha suv infratuzilmasini teng rivojlantirish — qishloq joylarda ham sifatli ichimlik suviga teng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-yil 27-yanvar Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova tizimlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ–60-son qarori). Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020-yil, 14-aprel). Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi Qonun. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Suv xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha statistik ma‘lumotlar. Toshkent: Davstatqo‘m.
4. Jo‘raev, A. (2022). O‘zbekiston iqtisodiyotida suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. World Bank. (2023). Water supply and sanitation in Uzbekistan: Challenges and opportunities. Washington, D.C.: The World Bank.
6. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/ekologiya/suv-tanqisligi>

<p>Ш.Пирова</p> <p>Роль и значение услуг по обеспечению питьевой водой в экономике нашей страны</p> <p>Аннотация. В данном исследовании проведён глубокий анализ роли и значения услуг по обеспечению питьевой водой в экономике страны. Актуальность работы определяется необходимостью обеспечения эффективного функционирования системы водоснабжения в условиях ограниченности водных ресурсов, глобальных климатических изменений, урбанизации и роста населения. В исследовании изучено современное состояние инфраструктуры питьевого водоснабжения в Республике Узбекистан, её влияние на различные отрасли экономики, уровень охвата населения водой, а также показатели технической и финансовой устойчивости.</p> <p>Ключевые слова: водоснабжение, экономическая эффективность, водная инфраструктура, система индикаторов, международный опыт, экономика Узбекистана, дефицит питьевой воды.</p>	<p>Sh.Pirova</p> <p>The role and importance of drinking water supply services in the economy of our country</p> <p>Abstract. This study provides an in-depth analysis of the role and significance of drinking water supply services in the country’s economy. The relevance of the research is determined by the need to ensure the efficient functioning of the water supply system under conditions of limited water resources, global climate change, urbanization, and population growth. The study examines the current state of drinking water supply infrastructure in the Republic of Uzbekistan, its impact on various sectors of the economy, the level of population coverage with water, as well as indicators of technical and financial sustainability.</p> <p>Keywords: water supply, economic efficiency, water infrastructure, indicator system, international experience, economy of Uzbekistan, drinking water shortage.</p>
---	--

Ибодулла Хасанович Ибрагимов – доцент кафедры «Маркетинг», СамИЭС
Лариса Алижоновна Мусабаева – старший преподаватель кафедры «Экономический анализ и статистика», СамИЭС

ЦИФРОВОЙ РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В СЕРВИСНЫХ КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье рассматриваются подходы цифрового реинжиниринга бизнес-процессов в сервисных компаниях Республики Узбекистан. Проведен анализ преимуществ цифрового реинжиниринга, применяемых цифровых технологий, а также моделей текущего состояния бизнес-процессов и целевого состояния их трансформации. Представлены результаты внедрения цифровых решений в деятельности сервисных компаний, выполнено сравнение с мировой практикой и разработаны практические рекомендации по комплексному применению цифрового реинжиниринга в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: реинжиниринг, цифровизация, бизнес-процессы, модель текущего состояния, модель целевого состояния, сервисные компании, Узбекистан.

Введение. В условиях ускоряющейся цифровизации экономики сервисные компании вынуждены пересматривать и оптимизировать бизнес-процессы с целью повышения операционной эффективности и качества обслуживания. Рост конкуренции, изменение потребительских ожиданий и активное внедрение цифровых технологий требуют перехода от локальных улучшений к системной трансформации процессов

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.